

PENSIYA TIZIMINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH VA RAQAMLI SHAXSIY PENSIYA PROFILINI JORIY ETISH

Zokirova Gavxar Abdumannonovna

Termiz Davlat universiteti moliya kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: zokirovag@tersu.uz

ORCID ID: 0009-0002-4200-4424

Tel: +998 (91)-580-03-90

Annotatsiya - Maqolada O'zbekiston pensiya tizimini boshqarishni takomillashtirish va fuqaroga yo'naltirilgan raqamli shaxsiy pensiya profilini joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy hamda axborot-arxitektura mexanizmlari tadqiq etiladi. Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. 2020–2024-yillarda pensiya oluvchilar soni 3,61 mln kishidan 4,25 mln kishiga oshgani, 2020–2025-yillarda tayinlangan o'rtacha oylik pensiya 848,5 ming so'mdan 1 649,2 ming so'mga yetgani aniqlandi. 2025-yilda Pensiya jamg'armasi 26 ta vazirlik va idora bilan 79 turdagi ma'lumotlarni elektron integratsiya qilgan hamda 3,8 mln.dan ortiq fuqaroga proaktiv va interaktiv xizmat ko'rsatgan. Tadqiqotda "raqamli shaxsiy pensiya profili" fuqaroning ish staji, ish haqi, ijtimoiy soliq to'lovlari, ta'lim, harbiy xizmat va boshqa pensiya huquqiga ta'sir qiluvchi ma'lumotlarini yagona verifikatsiyalangan raqamli konturda birlashtiruvchi tizim sifatida taklif etiladi. Profil pensiya huquqidagi bo'shliqlarni erta aniqlash, bo'lajak pensiyani prognozlash, xatolarni fuqaro tomonidan tuzatish, proaktiv tayinlash va boshqaruv analitikasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: pensiya tizimi, Pensiya jamg'armasi, raqamlashtirish, shaxsiy pensiya profili, proaktiv xizmat, ish staji, pensiya kalkulyatori, ma'lumotlar integratsiyasi, pensiya boshqaruvi, O'zbekiston.

KIRISH


Pensiya tizimi demografik, fiskal va institutsional omillar kesishadigan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir. Uning boshqaruv sifati faqat pensiyani o'z vaqtida to'lash bilan emas, balki fuqaroning butun mehnat faoliyati davomida pensiya huquqlarini to'g'ri shakllantirish, ma'lumotlarni verifikatsiya qilish, kelajakdagi majburiyatlarni prognozlash va xizmatlarni minimal tranzaksiya xarajati bilan ko'rsatish qobiliyati bilan baholanadi.

O'zbekistonda pensiya oluvchilar sonining barqaror o'sishi boshqaruv tizimiga yuklamani oshirmoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda 3 612,6 ming nafar bo'lgan pensiya oluvchilar soni 2024-yilda 4 246,4 ming nafarga yetgan. Shu davrda pensiya miqdorlari ham oshib borgan. Demografik qamrov va to'lov hajmi kengaygani sari hujjatga asoslangan, parchalangan va reaktiv boshqaruv modeli qimmatlashadi.

So'nggi yillarda pensiya tizimida sezilarli raqamli o'zgarishlar amalga oshirildi.

2025-yil 1-martdan yoshga doir pensiyani fuqarolarning murojaatisiz proaktiv tarzda tayinlash joriy etildi. 2025-yil davomida 53,4 ming fuqaroga shu tartibda pensiya tayinlandi. 26 ta vazirlik va idora bilan 79 turdagi ma'lumotlar integratsiyasi yo'lga qo'yildi va 3,8 mln.dan ortiq fuqaroga proaktiv yoki interaktiv xizmat ko'rsatildi.

Raqamli shaxsiy pensiya profilning taklif etilayotgan arxitekturas



1-rasm. Raqamli shaxsiy pensiya profilning taklif etilayotgan arxitekturas.

2025-yil 26-iyundagi PF-105-son Farmon asosida pensiya xizmatlarini to'liq elektron, interaktiv va proaktiv shaklga o'tkazish hamda fuqarolarning mavjud ish staji va ish haqi bo'yicha elektron ma'lumotlardan foydalanib pensiya miqdorini oldindan aniqlashga mo'ljallangan “Mening pensiyam” xizmatini joriy etish belgilandi. Bu islohot pensiya boshqaruvini “ariza kelgandan keyin hujjat tekshirish” modelidan “hayotiy sikl davomida pensiya huquqini kuzatish” modeliga o'tkazish imkonini yaratadi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston pensiya tizimining boshqaruv va raqamlashtirish tendensiyalarini baholash, mavjud axborot integratsiyasini fuqaro uchun tushunarli va nazorat qilinadigan raqamli shaxsiy pensiya profiliga aylantirish konsepsiyasini ishlab chiqish hamda ushbu profilning boshqaruv samaradorligi, shaffoflik va pensiya huquqlarini himoya qilishga ta'sirini asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Pensiya tizimini takomillashtirish masalalari iqtisodiy, institutsional, ijtimoiy va raqamli transformatsiya nuqtayi nazaridan ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pensiya tizimining samaradorligi nafaqat moliyaviy barqarorlik, balki pensiya huquqlarini aniq hisobga olish, ma'lumotlarning ishonchliligi, boshqaruv jarayonlarining raqamlashtirilishi va fuqarolarga ko'rsatiladigan xizmatlarning qulayligi bilan ham belgilanadi.

Pensiya tizimining nazariy va institutsional asoslarini o'rganishda Barr va Diamond (2008) tomonidan ishlab chiqilgan yondashuv muhim ahamiyatga ega. Mualliflar pensiya tizimini shakllantirishda adekvatlik, moliyaviy barqarorlik, rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv pensiya tizimini faqat to'lovlarni amalga oshiruvchi mexanizm sifatida emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy institut sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot uchun mazkur konsepsiyaning ahamiyati shundaki, raqamli shaxsiy pensiya profili ham pensiya huquqlarini uzoq muddat davomida shakllantirish va boshqarish vositasi sifatida qaraladi.

International Labour Organization (ILO, 2021) tadqiqotlarida ijtimoiy himoya tizimlarining qamrovi, moliyaviy barqarorligi va boshqaruv samaradorligi masalalari yoritilgan. ILO yondashuvida ijtimoiy himoya xizmatlarining aholining turli qatlamlariga yetib borishi, ma'lumotlarni boshqarish va xizmatlarni samarali tashkil etish muhim omillar sifatida ko'rsatiladi. Ushbu yondashuv raqamli texnologiyalarni pensiya tizimida qo'llashda nafaqat texnik imkoniyatlar, balki inklyuzivlik va fuqarolarning xizmatlardan teng foydalanishini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

World Bank (2022) tomonidan ijtimoiy himoya xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda yagona raqamli identifikatsiya, ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish, avtomatlashtirilgan xizmatlar va ma'lumotlar almashinuvi ijtimoiy himoya tizimlarining samaradorligini oshiruvchi omillar sifatida baholangan. Shu bilan birga, raqamlashtirish ma'lumotlar sifati, kibernetika xavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va raqamli tengsizlik kabi yangi risklarni ham yuzaga keltirishi qayd etiladi. Mazkur xulosalar taklif etilayotgan raqamli shaxsiy pensiya profilida verifikatsiya statusi, audit izi va ma'lumotlarga kirish vakolatlarini boshqarish mexanizmlarini joriy etish zaruratini asoslaydi.

O'zbekistonda pensiya tizimining moliyaviy va institutsional jihatlari bo'yicha ham qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Rajabov (2024) pensiya tizimini moliyalashtirishning amaliy jihatlari tahlil qilib, pensiya tizimiga ta'sir qiluvchi iqtisodiy, demografik va institutsional omillarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari pensiya tizimining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda moliyaviy resurslar bilan bir qatorda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Raxmonov (2024) pensiya ta'minotining moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rgangan. Muallif pensiya jamg'armasining daromadlari, xarajatlari va demografik yuklama o'rtasidagi nisbatni pensiya tizimi barqarorligining muhim omili sifatida ko'rib chiqadi. Ushbu yondashuv raqamli pensiya profilidan shakllanadigan agregatsiyalangan ma'lumotlardan kelajakdagi pensiya majburiyatlarini prognozlash va aktuariy hisob-kitoblarni takomillashtirishda foydalanish imkoniyatini ko'rsatadi.

Inoyatova (2025) O'zbekiston Respublikasida Pensiya jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish masalasini tadqiq qilib, pensiya tizimini modernizatsiya qilishda raqamlashtirish, jamg'arib boriladigan pensiya komponenti va investitsion boshqaruv imkoniyatlarini kengaytirishga e'tibor qaratadi. Mazkur tadqiqot pensiya jamg'armasi faoliyatini zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida tashkil etish zarurligini asoslaydi.

Biroq raqamlashtirishning fuqaroning individual pensiya huquqlarini real vaqtga yaqin rejimda kuzatish va boshqarish imkoniyatlari alohida tizimli konsepsiya sifatida yetarlicha ochib berilmagan.

Muqimov (2025) O'zbekistonda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish yo'llarini tadqiq etib, norasmiy bandlik, badallarning past darajasi va investitsion faollikning cheklanganligi kabi muammolarga e'tibor qaratadi. Muallif pensiya hisoblarini raqamlashtirish va pensiya kapitalini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv raqamli pensiya profilida nafaqat tayinlangan pensiya, balki fuqaroning pensiya huquqini shakllantiruvchi badallar va boshqa ma'lumotlarni ham jamlash zarurligini ko'rsatadi.

Xolmo'minova (2025) jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari o'rgangan. Tadqiqotda pensiya tizimining huquqiy bazasini takomillashtirish bilan bir qatorda zamonaviy institutsional mexanizmlarni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ushbu yondashuv raqamli pensiya profilini yaratishda ma'lumotlardan foydalanish vakolatlari, fuqarolarning o'z ma'lumotlarini nazorat qilishi va elektron murojaatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish masalalarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Mamatqulova (2025) pensiya tizimining ijtimoiy samaradorligini oshirishda raqamlashtirishning o'rnini tadqiq qilib, avtomatlashtirilgan hisob-kitoblar va raqamli ma'lumotlar bazalarining pensiya xizmatlari sifatini oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Mazkur tadqiqot taklif etilayotgan raqamli shaxsiy pensiya profilining texnologik asosini shakllantirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq fuqaroga ma'lumotlarning verifikatsiya holatini ko'rsatish, xatolarni pensiya yoshidan oldin aniqlash va elektron tuzatish mexanizmlarini birlashtirgan kompleks modelni ishlab chiqish masalasi qo'shimcha tadqiqotni talab qiladi.

Umuman olganda, o'rganilgan adabiyotlarda pensiya tizimining moliyaviy barqarorligi, jamg'arib boriladigan pensiya, huquqiy asoslar, raqamlashtirish va avtomatlashtirish masalalari keng yoritilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda ushbu yo'nalishlar ko'proq alohida-alohida o'rganilgan. Fuqaroning butun mehnat faoliyati davomida shakllanadigan ish staji, ish haqi, ijtimoiy to'lovlari, ta'lim va boshqa pensiya huquqiga ta'sir qiluvchi ma'lumotlarni yagona verifikatsiyalangan raqamli konturga birlashtirish masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning ilmiy yondashuvi mavjud adabiyotlardan farqli ravishda "raqamli shaxsiy pensiya profili" konsepsiyasini taklif etishdan iborat. Ushbu profil oddiy elektron shaxsiy kabinetdan farqli ravishda ma'lumotlarni faqat aks ettiribgina qolmay, ularning manbasi, verifikatsiya holati, yangilanishi, aniqlangan bo'shliqlar, pensiya huquqiga ta'siri va elektron tuzatish imkoniyatlarini ham o'z ichiga oladi. Natijada raqamlashtirish pensiya tayinlash jarayonini avtomatlashtirish vositasidan fuqaroning pensiya huquqlarini butun hayotiy sikl davomida boshqarish va davlatning ma'lumotlarga asoslangan boshqaruvini kuchaytirish mexanizmiga aylanadi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili tadqiqotning uchta asosiy ilmiy yo'nalishini belgilaydi: birinchidan, pensiya tizimining moliyaviy va institutsional barqarorligini ta'minlash; ikkinchidan, ma'lumotlar va xizmatlarni raqamlashtirish hamda

idoralararo integratsiyani rivojlantirish; uchinchidan, fuqaroning pensiya huquqlarini individual darajada monitoring qilish va boshqarish. Ushbu uch yoʻnalishning integratsiyasi raqamli shaxsiy pensiya profilini pensiya tizimini boshqarishning istiqbolli institutsional mexanizmi sifatida shakllantirishga asos boʻladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli tahlil, dinamik qatorlar, deskriptiv statistika, institutsional tahlil, xizmatlar dizayni va raqamli davlat boshqaruvi yondashuvlari qoʻllanildi. Statistik qismda pensiya oluvchilar sonining 2020–2024-yillardagi dinamikasi va tayinlangan oʻrtacha oylik pensianing 2020–2025-yillardagi oʻzgarishi tahlil qilindi. Raqamli transformatsiya koʻrsatkichlari Pensiya jamgʻarmasining 2025-yil yakunlari boʻyicha rasmiy hisobotidan olindi.

Pensiya boshqaruvi boʻyicha nazariy yondashuvlarda uchta blok muhim: moliyaviy barqarorlik, maʼmuriy samaradorlik va fuqaro huquqlarining aniqligi. Rajabov (2024) pensiya tizimini moliyalashtirishda demografik va iqtisodiy omillar taʼsirini koʻrsatadi. Raxmonov (2024) moliyaviy barqarorlikni pensiya fondi daromadlari, xarajatlar va demografik yuk bilan bogʻlaydi. Inoyatova (2025) pensiya jamgʻarmasi faoliyatini takomillashtirishda raqamlashtirish, jamgʻarib boriladigan komponent va investitsion boshqaruvni kengaytirishni taklif etadi.

1-jadval.

Pensiya tizimini takomillashtirish boʻyicha tanlangan mahalliy adabiyotlar sintezi.

Manba	Asosiy yoʻnalish	Mazkur tadqiqot uchun ahamiyati
Rajabov (2024)	Pensiya tizimini moliyalashtirish	Moliyaviy, demografik va institutsional omillarni birgalikda baholaydi.
Raxmonov (2024)	Moliyaviy barqarorlik	Pensiya fondi barqarorligiga taʼsir etuvchi iqtisodiy omillarni koʻrsatadi.
Inoyatova (2025)	Pensiya jamgʻarmasi boshqaruvi	Raqamlashtirish va boshqaruvni modernizatsiya qilishni taklif qiladi.
Muqimov (2025)	Jamgʻarib boriladigan pensiya	Pensiya hisoblarini raqamlashtirish va kapitalizatsiyani kuchaytiradi.
Xolmoʻminova (2025)	Huquqiy asos va istiqbollar	Pensiya tizimidagi demografik va raqamli muammolarni tahlil qiladi.
Mamatqulova (2025)	Pensiya tizimi va raqamlashtirish	Raqamli maʼlumotlar bazasi, avtomatlashtirish va shaffoflikni asoslaydi.

Muqimov (2025) jamgʻarib boriladigan pensiya tizimining asosiy muammolari sifatida norasmiy bandlik, past badal stavkalari va investitsion faollikning cheklanganligini qayd etib, pensiya hisoblarini raqamlashtirishni taklif qiladi. Xolmoʻminova (2025) pensiya tizimining huquqiy asoslarini tahlil qilib, raqamlashtirish bilan birga raqobatbardosh jamgʻarma institutlarini rivojlantirish zarurligini koʻrsatadi. Mamatqulova (2025) pensiya tizimining ijtimoiy samaradorligida avtomatlashtirilgan hisob-kitob va raqamli maʼlumotlar bazasining oʻrniga urgʻu beradi.

Raqamli shaxsiy pensiya profili konsepsiyasi oddiy “shaxsiy kabinet”dan kengroqdir. Shaxsiy kabinet odatda tayyor maʼlumotni koʻrsatadi; profil esa maʼlumotning manbasi, verifikatsiya holati, davriy yangilanishi, yetishmayotgan davrlar, pensiya huquqiga taʼsiri va fuqaroga tuzatish tashabbusini berishi kerak. Shu

sababli profil ma’lumotlar vitrinasidan ko‘ra pensiya huquqini boshqarish vositasi sifatida loyihalanadi.

NATIJALAR


2020–2024-yillarda pensiya oluvchilar soni 633,8 ming kishiga yoki 17,5 foizga oshdi. Eng yuqori yillik o‘shish 2022-yilda kuzatilib, pensiya oluvchilar soni 5,1 foizga ko‘paygan.

2-jadval.

O‘zbekistonda pensiya oluvchilar sonining dinamikasi.

Yil	Pensiya oluvchilar, ming kishi	Yillik o‘shish, %
2020	3 612.6	—
2021	3 785.3	4.8
2022	3 976.9	5.1
2023	4 152.6	4.4
2024	4 246.4	2.3

2024-yilda o‘shish sur’ati 2,3 foizgacha sekinlashgan bo‘lsa-da, absolyut qamrov 4,25 mln kishidan oshgan. Tizimning bunday ko‘lami hujjatlarni qo‘lda tekshirish, fuqarodan ma’lumot yig‘ish va idoralararo so‘rovlar bilan ishlashga asoslangan modelni iqtisodiy jihatdan samarasiz qiladi.



2-rasm. Pensiya oluvchilar soni dinamikasi, 2020–2024.

Pensiyaning nominal o‘rtacha miqdori ham tez o‘ydi. Tayinlangan o‘rtacha oylik pensiya 2020-yilda 848,5 ming so‘m, 2023-yilda 1 234,5 ming so‘m, 2024-yilda 1 495,6 ming so‘m va 2025-yilda 1 649,2 ming so‘mni tashkil etdi. 2020–2025 davrida nominal o‘shish 94,4 foizga teng.


3-jadval.

Tayinlangan o‘rtacha oylik pensiya dinamikasi.

Yil	O‘rtacha oylik pensiya, ming so‘m	Yillik nominal o‘shish, %
2020	848.5	—
2021	963.6	13.6

2022	1 080.8	12.2
2023	1 234.5	14.2
2024	1 495.6	21.2
2025	1 649.2	10.3

Ushbu o‘shish fuqaroga pensiya miqdorini shakllantiruvchi komponentlar — ish staji, ish haqi va hisoblash bazasi — bo‘yicha tushunarli raqamli izoh berish zaruratini kuchaytiradi.



3-rasm. O‘rtacha oylik pensiya miqdori, 2020–2025.


Raqamli transformatsiyaning 2025-yildagi natijalari boshqaruv modelining allaqachon o‘zgarayotganini ko‘rsatadi. Pensiya jamg‘armasi 26 ta vazirlik va idoralar bilan 79 turdagi ma’lumot almashuvini integratsiya qilgan. 3,8 mln.dan ortiq fuqaroga proaktiv va interaktiv xizmat ko‘rsatilgan.

4-jadval.

Pensiya tizimining 2025-yildagi raqamli transformatsiya natijalari.

Raqamli transformatsiya ko‘rsatkichi	2025-yil natijasi	Boshqaruv ahamiyati
Integratsiyalashgan vazirlik va idoralar	26 ta	Ma’lumotni fuqaro olib kelishi zaruratini kamaytiradi.
Elektron almashinadigan ma’lumot turlari	79 tur	Pensiya huquqini avtomatik tekshirish bazasini kengaytiradi.
Proaktiv va interaktiv xizmatlar	3,8 mln.dan ortiq	Xizmat modelining ommaviy raqamlashtirilganini ko‘rsatadi.
Proaktiv tayinlangan yoshga doir pensiyalar	53,4 ming nafar	Arizasiz pensiya tayinlashning amalda ishlayotganini ko‘rsatadi.
Murojaatlar dinamikasi	–25%	Raqamlashtirish xizmatga bog‘liq ovoragarchilikni kamaytirganini anglatadi.

Yoshga doir pensiya bo‘yicha 53,4 ming nafar fuqaro alohida arizasiz proaktiv tayinlash xizmatidan foydalangan. 2025-yil 1-oktyabrdan ayrim pensiya xizmatlarida Face-ID va elektron imzo mexanizmlari joriy etilgan.



4-rasm. Pensiya tizimining 2025-yildagi raqamli transformatsiya ko'rsatkichlari.

Tahlil asosida raqamli shaxsiy pensiya profilining minimal funksional tarkibi taklif etiladi. Profilning markaziy elementi “pensiya huquqi registri” bo‘lib, unda har bir pensiya hisobiga olinadigan davr manbasi bilan bog‘langan holda ko‘rsatiladi.

5-jadval.

Raqamli shaxsiy pensiya profilining tavsiya etiladigan funksional modullari.

Profil moduli	Mazmuni	Fuqaro uchun qiymat	Boshqaruv uchun qiymat
Staj xronologiyasi	Ish, o‘qish, harbiy xizmat va boshqa hisobga olinadigan davrlar	Yo‘qolgan davrni pensiya yoshidan oldin aniqlaydi	Tayinlash paytidagi nizolarni kamaytiradi
Ish haqi va badallar	Yillar kesimida ish haqi/ijtimoiy to‘lovlar	Pensiya bazasini tushunish	Ma’lumot anomaliyalarini aniqlash
Verifikatsiya statusi	Tasdiqlangan / aniqlashtiriladigan yozuvlar	Qaysi ma’lumotni tuzatish kerakligini bilish	Ma’lumot sifati KPI
Pensiya kalkulyatori	Amaldagi qoidalar asosida taxminiy miqdor	Moliyaviy rejalashtirish	Kelajak majburiyatini prognozlash
Ogohlantirishlar	Staj yetishmasligi, ma’lumot bo‘shlig‘i, pensiya yoshi yaqinligi	Muammoni erta hal qilish	Proaktiv boshqaruv
Tuzatish so‘rovi	Dalil biriktirib elektron e’tiroz yuborish	Idoraga borishni kamaytiradi	Case-managementni standartlashtiradi
Audit izi	Kim, qachon, qaysi ma’lumotni o‘zgartirgan	Ishonch va shaffoflik	Nazorat va javobgarlik

Fuqaro stajdagi bo‘shliqni, tizim qaysi ma’lumotni qaysi idoradan olganini, qaysi davr verifikatsiya qilinmaganini va bu holat taxminiy pensiyaga qanday ta’sir qilishini ko‘rishi kerak.

6-jadval.

Raqamli pensiya profilini boshqarish uchun tavsiya etiladigan KPIlar.

KPI	Hisoblash mazmuni	Maqsad
Profil to‘liqligi	Verifikatsiyalangan asosiy	Ma’lumot sifati

	maydonlar / jami zarur maydonlar	
Erta aniqlangan xatolar ulushi	Pensiya yoshidan oldin tuzatilgan holatlar / jami xatolar	Nizolarni oldini olish
Proaktiv tayinlash ulushi	Arizasiz tayinlangan pensiyalar / yangi pensiyalar	Jarayon avtomatizatsiyasi
Qo'shimcha hujjat indeksi	1 ta pensiya ishiga fuqaro olib kelgan hujjatlar soni	Zero-paper model
Tayinlash sikli	Huquq paydo bo'lishi–qaror oralig'i	Tezkorlik
Qayta ko'rib chiqish darajasi	E'tiroz sabab o'zgargan qarorlar / jami qaror	Hisob-kitob aniqligi
Raqamli xizmatdan foydalanish	Faol profil foydalanuvchilari / maqsadli aholi	Adopshn va inkluzivlik

Profilni joriy etish samaradorligini boshqarish uchun natijaviy KPilar zarur. "Tizim ishlayapti" degan texnik mezon yetarli emas. Asosiy ko'rsatkichlar pensiya tayinlashdan oldin aniqlangan staj xatolari ulushi, pensiya tayinlashda fuqaro taqdim etadigan qo'shimcha hujjatlar soni, qarorni qayta ko'rib chiqish holatlari, xizmatga sarflanadigan vaqt, proaktiv tayinlash ulushi va fuqaro murojaatlari dinamikasi bo'lishi lozim.

MUHOKAMA

Natijalar O'zbekistonda pensiya raqamlashtirishining asosiy infrastruktura bosqichi sezilarli darajada shakllanganini ko'rsatadi. Idoralararo ma'lumot almashuvi, proaktiv pensiya tayinlash va biometrik identifikatsiya mavjud. Keyingi muammo texnologik emas, boshqaruv muammosidir: turli axborot bazalaridagi ma'lumotni fuqaro uchun birlashtirilgan, tushunarli va tuzatiladigan pensiya huquqi profiliga aylantirish kerak.

Raqamli shaxsiy pensiya profilining eng katta iqtisodiy qiymati pensiya tayinlash kuni emas, undan 5–20 yil oldin yuzaga keladi. Stajdagi yo'qolgan davr, noto'g'ri ish haqi yozuvi yoki hisobga olinmagan ta'lim/harbiy xizmat ma'lumoti pensiya yoshida aniqlansa, uni tiklash qimmat va nizoli bo'ladi. Profil bu muammoni real vaqtga yaqin rejimda aniqlab, fuqaroga tuzatish imkonini beradi. Shu ma'noda profil "pensiya tayinlash" xizmatidan "pensiya huquqini hayotiy sikl davomida boshqarish" xizmatiga o'tishdir.

2026-yilga mo'ljallangan "Mening pensiyam" xizmatini faqat pensiya kalkulyatori bilan cheklash yetarli bo'lmaydi. Kalkulyator noto'liq ma'lumotga asoslangan bo'lsa, foydalanuvchiga noto'g'ri ishonch beradi. Shuning uchun taxminiy pensiya raqami bilan birga ma'lumot to'liqligi koeffitsiyenti, tasdiqlanmagan davrlar va hisob-kitob qaysi ma'lumotlarga tayanganini ko'rsatish zarur.

Profilning asosiy risklari — ma'lumot sifati, kiberxavfsizlik, algoritmik xato va raqamli tengsizlik. Keksalar yoki raqamli savodxonligi past foydalanuvchilar uchun faqat mobil ilova modeli yetarli emas. Profil my.gov.uz, davlat xizmatlari markazi, Pensiya jamg'armasi bo'limi va call-markaz orqali bir xil ma'lumot bilan ishlashi kerak. Boshqacha aytganda, raqamli profil kanal emas, yagona "haqiqat manbai" bo'lishi kerak.

Shaxsiy ma'lumotlar nuqtayi nazaridan "minimum necessary access" tamoyili

qo'llanishi lozim. Har bir idora faqat o'z vakolatiga zarur maydonlarni ko'rishi, profilga kirish va ma'lumot o'zgarishlari audit jurnalida saqlanishi, fuqaro esa qaysi tashkilot uning ma'lumotiga murojaat qilganini ko'ra olishi kerak. Bu shaffoflik pensiya tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Moliyaviy boshqaruv uchun raqamli profil mikro-ma'lumotlar sifatini oshiradi. Anonimlashtirilgan agregatlar asosida kelajakdagi pensiyaga chiqish oqimi, staj tuzilmasi, kutilayotgan o'rtacha pensiya va majburiyatlar aniqroq prognoz qilinadi. Shunday qilib, fuqaro uchun yaratilgan servis Pensiya jamg'armasi uchun aktuariy va fiskal rejalashtirish infratuzilmasiga ham aylanadi.

Taklif etilayotgan modelni birdaniga barcha funksiyalar bilan joriy qilish shart emas. Eng kichik samarali versiya uch elementdan iborat bo'lishi mumkin: staj xronologiyasi, verifikatsiya statusi va pensiya kalkulyatori. Keyin elektron tuzatish so'rovi, ogohlantirishlar, jamg'arib boriladigan hisob va shaxsiy moliyaviy rejalashtirish modullari qo'shiladi.

XULOSA

O'zbekiston pensiya tizimida xizmatlarni raqamlashtirishdan ma'lumotga asoslangan boshqaruvga o'tish uchun institutsional baza shakllanmoqda. 2025-yilda 26 ta vazirlik va idora bilan 79 turdagi ma'lumot integratsiyasi, 3,8 mln.dan ortiq proaktiv/interaktiv xizmat hamda 53,4 ming proaktiv yoshga doir pensiya tayinlanishi ushbu transformatsiyaning amaliy ko'lamini ko'rsatadi.

Pensiya oluvchilar sonining 2020–2024-yillarda 17,5 foizga ko'payishi va o'rtacha pensianing 2020–2025-yillarda qariyb ikki baravar nominal oshishi pensiya boshqaruvi ko'lamini kengaytiradi. Shu sharoitda fuqaro pensiya yoshiga yetgach hujjat yig'ish modelini saqlab qolish iqtisodiy va ma'muriy jihatdan samarasiz.

Raqamli shaxsiy pensiya profili ish staji, ish haqi, ijtimoiy to'lovlar, ta'lim va boshqa pensiya huquqlarini yagona xronologik ko'rinishda birlashtirishi, har bir yozuvning verifikatsiya statusini ko'rsatishi, bo'lajak pensiyani hisoblab berishi va xatoni pensiya yoshidan oldin tuzatishga imkon yaratishi kerak. Profil proaktiv xizmatlar uchun front-end emas, pensiya huquqining master-data qatlamiga aylanishi lozim.

Amaliy jihatdan besh ustuvor yo'nalish taklif etiladi: 1) "Mening pensiyam" xizmatini staj va ma'lumot to'liqligi indikatorlari bilan boyitish; 2) fuqaroga elektron tuzatish va dalil yuborish mexanizmini berish; 3) profil ma'lumotlari uchun yagona data-governance va audit izi standartini joriy etish; 4) profil to'liqligi, proaktiv tayinlash, qayta ko'rib chiqish va xizmat sikli bo'yicha KPIlarni boshqaruvga kiritish; 5) anonimlashtirilgan profil ma'lumotlaridan aktuariy va fiskal prognozlarda foydalanish.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, ochiq ma'lumotlarda pensiya ishlarining mikro darajadagi xato sabablari, tayinlash sikli va raqamli xizmat foydalanuvchilari bo'yicha panel mavjud emas. Keyingi tadqiqotda raqamli profil pilot hududlarda joriy etilib, xizmat vaqti, xatolar, murojaatlar va fuqaro qoniqishi bo'yicha difference-in-differences usulida baholanishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Barr, N., & Diamond, P. (2008). Reforming pensions: Principles and policy choices. Oxford University Press.
2. Inoyatova, M. (2025). O'zbekiston Respublikasida pensiya jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish. Green Economy and Development, 3(2). <https://doi.org/10.5281/zenodo.14878816>
3. International Labour Organization. (2021). World social protection report 2020–22. ILO.
4. Mamatqulova, Y. D. (2025). O'zbekiston pensiya tizimining ijtimoiy samaradorligini oshirishda raqamlashtirishning o'rni. Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali.
5. Muqimov, N. N. (2025). O'zbekistonda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish yo'llari. Modern Science and Research, 4(5), 1366–1372. <https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.science-research.97475>
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026). The average monthly pension assigned to retirees. SIAT statistical information system.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2025). Social protection in the Republic of Uzbekistan: 2024. Press release.
8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi. (2025). Pensiya jamg'armasi tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar hisoboti.
9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi. (2025). Pensiya tizimi bosqichma-bosqich to'liq raqamlashtiriladi.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025). Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi hamda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan zamonaviy xizmatlarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida, PF-105-son Farmon.
11. O'zbekiston Respublikasi. (2025). Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida, O'RQ-1066-son.
12. Rajabov, N. (2024). Pensiya tizimini moliyalashtirishning amaliy tahlili. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(12), 152–159. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss12-pp152-159>
13. Raxmonov, N. M. (2024). Pensiya ta'minotining moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar. Modern Science and Research, 3(8), 90–94. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13340468>
14. World Bank. (2022). Digitalizing social protection delivery systems: Opportunities and risks. World Bank.
15. Xolmo'minova, B. A. q. (2025). O'zbekiston Respublikasida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari. Science and Education, 6(6), 697–702.